

Xayitova Ozoda Xudoybergan qizi.

Urganch Davlat Universiteti.

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti

Tarix (mamlakatlar va yo`nalishlar)

yo`nalishi bo`yicha

1-bosqich talabasi.

Annotatsiya; Ushbu maqola Makedoniyalik Aleksandrning O`rta Osiyoni egallab olishi haqida hikoya qiladi. Shuningdek, Aleksandrning bosqiniga qarshi ko`tarilgan qo`zg`alonlar va ularning natijalari hamda, uning O`rta Osiyoda yuritgan siyosati haqida ham ma'lumotlar keltirib o`tilgan.

Kalit so`zlar: Aleksandr Makedonskiy, Fillip II Makedoniya, Yunoniston, Aristotel, lashkarboshi Ptolomey iLag, sarkardalar Karan va Farnux, tarixchi Aristobul, Hindiston o`lkasi, Ahomoniylar sulolasi, Sug`diyona, Baqtriya, Spitaman, Bobil (Suriya), Misr.

Аннотация: В данной статье рассказывается история завоевания Александром Македонский Средней Азии. Также даются сведения о восстаниях против нашествия Александра и их результатах, а также сведения о политике Александра в средней Азии.

Ключевые слова: Александр Македонский, Филипп II, Македония, Греция, Аристотель, полководец Птолемей Лаг, полководцы Каран и Фаррух, историк Аристобул, Индия, династия Ахеменидов, Сугдияна, Бактрия, Спитаман, Вавилон (Сирия), Египет.

Annotation: This article tells the story of Alexander the Great`s conquest of Central Asia. Also, information about the uprisings against Alexander`s invasion and their results, as information about Alexander`s policy in Central Asia is give.

Key words: Alexander of Macedon, his father Philip, Macedonia, Greece, his teacher Aristotel, Commander-in-Chief Ptolomey Lag, his generals Karan and

Farrukh historian Aristobulus, the land of India, the Achaemenid, Sogdiana, Bacteria, Spitamen, Babyl, Mist.

Aleksandr mil.avv.329-yilda Baqtriyani egallagach satrap Bess Amudaryodan o'tib Nautaka (Qashqadaryo viloyati) ga chekingan. Ammo Bess tezda qo'lga olinib, qatl etilgan. So'ng Aleksandr Maroqandani egallab, Sirdaryo tomon borgan va u yerda shahar barpo etib, uni Aleksandriya Esxata deb ataydi.

Mil.avv.334-yil mayda Graniq daryosi bo'yida, mil.avv.333-yil oktabrida Gavgamela yonidagi jangda ya'ni shimoliy- sharqiy Mesopotamiyada bo'lib o'tgan janglarda fors qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi. Shundan so'ng Aleksandr uchun Ahomoniylar davlatining markaziga yo'l ochiladi. Aleksandr dastavval Bobilni, so'ngra Suza, Persepol, Parsagada shaharlarini egallab, fors podsholarining xazinalarini qo'lga kiritdi. So'ngi ahamoniy hukmdor Doro III avval Midiya keyin esa Baqtriyaga qochib ketadi. Tarixchi Kvint Kursiy Rufning ma'lumot berishicha Baqtriyada Doro III ga qarshi fitna uyushtiriladi va u o'ldiriladi. Bu fitnaga boshchilik qilgan Bess o'zini Ahamoniylar podshosi deb e'lon qiladi. Ammo Bess Aleksandrga qarshi harbiy qo'shnlarni qarshi qo'ya olmaydi. Mil.avv.329-yilning bahoriga qadar Aleksandr Ariya, Drangiyona, Aroxosiyo kabi viloyatlarni egallab, Oks-Amudaryo chegaralarigacha kirib kelgan. Arrian va Kvint Kursiy Ruf ma'lumotlariga ko'rabu paytda daryo juda sersuv bo'lib, to'lib oqar edi. Amudaryodan kechuv joylarini tadqiqotchilar Kelif atroflari, Chushqagazor, Termiz atroflari va Sharob deb hisoblaydilar. Nima bo'lganda ham Aleksandr qo'shinlari qoplarga somon-xashak solib to'ldirib ular orqali 5 kun davomida Amudaryodan kechib o'tganligi haqida yozma manbalarda ma'lumotlar keltirilgan. Aleksandr qo'shinlari daryodan o'tgach Bessni ta'qib qilib, Sug'd viloyati va Nautakaga yo'l oladilar. (Avval Ptolomey Lag boshchiligidagi ilg'or qism, keyin asosiy kuchlar). Sug'd yerlarida Spitaman boshliq mahalliy sarkardalar Aleksandrni to'xtatib qolish maqsadida Bessni asir olib unga topshiradilar. Ammo Aleksandrda harbiy harakatlarni to'xtatish niyati yo'q edi.

Nautakadan so'ng yunon-makedon qo'shinlari Sug'diyonaning poytaxti Samarqandga yurish qilib uni egallaydilar. Kvint Kursiy Ruf ma'lumotlariga ko'ra yunon-makedonlar shaharda o'zlarining garnizonini qoldirib, yaqin-atrofdagi

qishloqlarni yondirib ularni vayron qilib tashlaydilar. Keyinchalik shimoliy-sharqqa yurish qilib boshlaydila. Jizzax va O`ratepa oralig`idagi tog`li hududlarda yunon-makedon qo`shinlari qattiq talofat ko`ra boshlaydilar. Aleksandrning o`zi ham qattiq yarador bo`ladi. Shunga qaramay tog`li hudud aholisini qiyinchilik bilan mag`lub etgan yunon-makedonlar dasht ko`chmanchilari saklar vas ug`diylar o`rtasida chegara bo`lgan Yaksart-Sirdaryoga tomon harakat qila boshlaydilar.

Yunon-makedonlar Yaksard bo`yida to`xtab bu yerga o`z harbiy qismlarini joylay boshlaydilar. Ko`p o`tmay bu shahar aholisi Aleksandrga qarshi qo`zg`alonlar ko`taradilar. Daryoning o`ng qirg`oqidagi saklar ham qo`shinini bir joyga to`play boshlaydilar. Xuddi shu payt Sug`doyon ava Baqtriya hududlarida ham qo`shinlarni bir yerga to`play boshlaydilar va Aleksandrga qarshi qo`zg`alonlar boshlanib ketadi. Aleksandr dastlab Yaksart bo`yida o`z mavqeini mustahkamlashga qaror, qilib bu yerdagi qo`zg`alonlarni bostiradi. Sug`diyonda mil.avv.329-yilning kuzidagi qo`zg`alonni bostirish uchun Farnux boshchiligidagi qo`shinlarni jo`natadi. O`zi asosiy qo`shinlari bilan saklar ustiga yurish qildi. Ammo bu yurish muvafaqqiyatsiz tugadi.

Farnux boshliq Maroqandaga jo`natilgan qo`shinlar Spitaman tomonidan mag`lubiyatga uchratildi.

Aleksandr o`zi asosiy kuchlar bilan Sug`diyonga qaytishga majbur bo`ldi. O`rta Osiyoda ko`yatilgan qo`zg`olonlar yunon-makedon zulmidan ozod bo`lishga qaratilgan bo`lib, Aleksandrni varvarlarni osonlikcha bosib olmoqchi bo`lgan rejasini puchga chiqaradi.

Sug`diyoning tog`li hududlaridagi bosqinchilar qadami yetmagan joylarda qo`zg`alonchilar yashirinib olgan edilar. Sug`diyoning deyarli barcha a`zosi Spitaman tomonidan bo`lib, uning g`alabalariga katta umid bog`lagan edilar. Aleksandr esa mil.avv. 329- 328-yillar qishlovini Baqtriyada, ba`zi manbalarda Nautakada deyiladi o`tkazar ekan vaqtini behuda o`tkazmadi. U bu yerda Xorazm hukmdori Farazman bilan muzokaralar olib bordi. Natijada Aleksandrning Xorazmga yurish rejasi to`xtatildi. Mil. avv. 328-yil bahorida yunon-makedonlarga qarshi kurash yana avj oldi. Mahalliy aholi yirik shaharlar, qal`alar va tog`li hududlarda

kurashni davom ettirdilar. Avval jiddiylashganidan havotirga tushib Aleksandr 30 ming qo'shinni 5 guruhga bo'lib, bu guruhlarga ishonchli sarkardalar Gefestion, Ptolomey Leg, Perdikka, Ken va Artobozlarni boshliq qilib tayinladi.

Yunon-makedonlarini shavqatsiz urishlar natijasida ko'pgina mahalliy aholi qirilib ketdi. Qolganlari ham tog'li hududlarda kurashni davom ettirdilar. Bu o'rinda Spitamanni jasorati haqida to'xtalish joizdir. U doim raqiblarini zaif joylarini izlar va ularga hamish o'sha joyidan zarba berar edi. Spitaman sug'diy va baqtriyalik zodagonlar hamda saklar bilan ittifiqlikda dushmanga qarshi kurashishga harakat qildi. Manbalarning ma'lumot berishicha mil. avv. 328-yil oxirida Spitaman o'z vatandoshlari xiyonatining qurboni bo'ldi.

Spitaman halok bo'lganidan so'ng asosan tog' qal'alari qo'zg'olonlar o'chog'iga aylandi. Yozma manbalarda eslatilgan "So'g'd qoyasi" (yoki "Aremas qoyasi") "Xoriyen qoyasi" shular jumlasidandir.

Aleksandr Makedoniskiy mahalliy aholini kuch bilan yengish nihoyatda og'ir ekanini anglab yetganidan so'ng turli yo'llar bilan ularga yaqinlashishga qaror qildi. Mahalliy xalq vakillariga nisbatan siyosatni tubdan o'zgartirdi. Xususan, Zardushiy kohinlarga ancha erkinlik berib o'zi ham bu dinni qabul qildi

Yunon-makedon qo'shinlariga qarshi uch yil kurash olib borar ekan O'rta Osiyo xalqlari mislsiz jasorat namunalarini ko'rsatadilar. Ular yunonlar o'ylaganidek, varvarlar madaniyatdan orqada qolgan emas, balki o'z davrining yuksak harbiy san'ati va madaniyatiga ega ekanliklarini namoyan etdilar. Aleksandr qo'shinlari butun Sharq davlatlarini o'zlariga bo'ysundirganlarida Sug'diyona va Baqtriyadagi kabi qattiq qarshilikka uchramagan edilar. Bu holni Aleksandr tarixini yozgan ko'pgina qadimgi davr tarixchilari ham e'tirof etadilar. O'zbekiston hududlarida yashagan mahalliy aholi o'z ozodligi va mustaqilligi yo'lida bir tan-bir jon bo'lib harakat qilganlar. Ammo, kuchlar nisbati va harbiy texnikaning teng emasligi ko'p hollarda bosqinchilar ustunligini ta'minladi. Shunga qaramay bunday holatlar davlatchilik tarixida muhim iz qoldirgan. Shunday qilib Xorazm, Choch (Toshkent vohasi), Farg'ona va saklar yurti Aleksandrdan mustaqil bo'lib qoladi. Sug'diyona, Baqtriya, Marg'iyona va Parfiya Aleksandrning davlatiga

qo`shilib, keyinchalik ularning hududida ayrim Yunon-makedon davlatlari vujudga keladi. O`rta Osiyoda istilo etilgan viloyatlar va shaharlarni boshqarish uchun yunon-makedon sarkardalari bilan birga mahalliy hokimlar ham jalb etilgan. Yozma manbalarning ma'lumot berishicha Aleksandr davrida mahalliy aholi vakillaridan Fratafarn-Girkaniyada, Artaboz-Baqtriyada, Oksiart va Xorien Sug`diyona viloyatlariga hokimlik qilar edilar. Mil.avv.325-yilda Oksiart qo`l ostiga Paropamis-Hindikush viloyatlari topshirildi. Mil.avv.325-324-yillarda makedonlar qurollahalar bilan qurollangan mahalliy aholi qo`shinlari yunon-makedon armiyasi safiga jalb etildi. Aleksandr mahalliy hokimiyat vakillariga nisbatan maqsadli siyosat olib borgan. Mil.avv.324-yilda Suza shahrida o`n mingta yunon-makedon askarlari mahalliy ayollarga uylanadilar.

Yunon-makedonlarning 330-327-yillardagi O`rta Osiyodagi bosqinchilik yurishlariga qaramay o`sha davrda bu hududlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o`zgarishlar bo`lib o`tdi. O`rta Osiyoga Ellin madaniyati kirib keladi. O`rta Osiyoning janubiy viloyatlari yirik ellinistik davlatlar tarkibiga kirib, bu viloyatlarda yangi siyosiy- ma'muriy tartib joriy etildi. Bu tartib O`rta Osiyoda madaniy, iqtisodiy, tovar-pul, munosabatlarning rivojiga turtki bo`ldi. Mahalliy va ellin madaniyatining uyg`unlashuvi bo`lib o`tdi.

XULOSA.

Qadimgi dunyo tarixida Makedoniyalik Aleksandrning o`rni buyuk hisoblanadi. U juda katta davlat barpo ettiki, uning davlati bir tomondan Ahamoniylar davlatiga ham o`xshab ketardi. Shu bilan birga ham davlat arbobi, buyuk sarkarda hamda ana shunday buyuk imperiyaning podshosi bo`lgan. Aleksandr harbiy yurishlari qatorida, O`rta Osiyoga ham bosqinchlik yurishlarini amalga oshiradi. U O`rta Osiyoni egallash uchun uch yil davomida istilochilik yurishlarini olib boradi. Lekin, uncha katta bo`lmagan hududlarni, Marg`iyona, Sug`diyona, Baqtriya, Xo`jand va Bekobod hududlarinigina egallashga muvaffaq bo`ldi. Xorazm, Toshkent va Farg`ona o`z mustaqilligini saqlab qola oldi. Yunon-makedon istilolari bir jihatdan O`rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotiga ta'sir etdi. O`rta Osiyo hududlariga ellin madaniyati ham kirib

keldi. Antik davr shaharsozligi vujudga keldi. Jumladan, Aleksandrning o'zi ham O'rta Osiyo hududida bir qator shaharlarni bunyod ettirgan. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: Aleksandra Oksiana (Oks bo'yidagi Aleksandriya), (Aleksandra Marg'iyona (Marg'iyona Aleksandriyasi), Aleksandra Esxata (Chekkadagi Aleksandriya) va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.R.Rajabov. "Qadimgi dunyo tarixi "(Qadimgi Sharq) Toshkent.(Fan va texnologiya).2009-yil. 286-290 betlar.

2.A.Sagdullayev. "O'zbekiston tarixi ". Toshkent. (Donishmand ziyosi). 2021-yil. 200-202 betlar

3.A.Kabirov. "Qadimgi Sharq tarixi" Toshkent. (Tafakkur). 2016-yil. 276-280 betlar.